

Ashurova Go'zalxon Komil qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI GEOMETRIK MATERIALLAR BILAN TANISHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada geometriya so'zining ma'nosi, geometrik materiallarni o'rgatishning asosiy maqsadi, boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganishning tizimi, geometrik materiallar bilan tanishtirishda o'qituvchining asosiy vazifalari, o'quvchilar uchun ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: geometriya, maqsad, figura, induktiv, deduktiv, element, o'quvchi, o'qituvchi, doira, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak.

Geometriya so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "geo"-yer, "metriya"-o'lchayman degan ma'noni anglatadi. Boshlang'ich sinflarda geometriya alohida fan sifatida emas, dasturdan ajratilmagan holda, matematika darsligida beriladi.

Boshlang'ich sinflarda geometrik tushunchalarni o'tishdan asosiy maqsad o'quvchilarda geometrik figuralar haqidagi, ularning elementlari orasidagi munosabatlar haqida, bu tushunchalar xossalari haqidagi tasavvurlarning to'la tizimini tarkib toptirishdan iborat.

Geometrik materiallarni o'tishda o'qituvchining asosiy vazifasi boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan geometrik materiallarni o'rgatish metodikasini chuqur o'rganib o'quvchilarda geometrik figuralar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish, geometrik materiallar bilan arifmetik va algebraik materiallar uzviy bog'liqligini o'rgatish, geometrik materiallarni o'rgatishning samarali usul, vosita, metodlaridan o'rinli foydalanishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallar bilan tanishtirishda o'lchashlarga katta o'rin beriladi. Bolalar nimaning uzunligini (I sinf), berilgan ko'pburchakning perimetrini (II sinf), to'g'ri to'rtburchakning yuzini (IV sinf) topishni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganish tizimi:

- Geometrik figuralar (doira, ko'pburchaklar)dan sanoq materiali sifatida foydalaniladigan masalalar. Bunday masalani yechishda atamalardan foydalanamiz.
- Geometrik kattaliklar (uzunlik, yuza) haqidagi tasavvurlarni va kesmalarni, figuralarni o'lchash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar.
- Ko'pburchak perimetrlarini, to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblashga doir misollar.
- Elementlar yasashga doir masalalar.
- Geometrik figuralarni katak qog'ozga, chizg'ich yordamida elementar yasashga doir masalalar.
- Figuralarni sinflarga ajratishga doir masalalar.
- Figuralarni qismlarga bo'lishga doir masalalar va boshqa figuralardan figura tuzishga doir masalalar.
- Harfiy belgilardan foydalanib geometrik chizmalarni o'qishning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar.

➤ Predmetlar yoki ularning qismlarining geometrik shakllarini aniqlash bilan bog'liq masalalar.

1-sinfda o'quvchilar dastlab figuralar va ularning nomlari bilan tanishadilar. Bu jarayonda figuralarning modellari, borliqdagi narsalar va rasmlardan foydalanish kerak. Figuralar to'plamidan doiralardan to'plamini, kvadratlar to'plamini, uchburchaklar to'plamini ajratadilar. 2-sinfdan boshlab esa ko'pburchaklar, to'rtburchaklar, 3-sinfda to'g'ri to'rtburchaklar to'plamini ajratadilar. O'quvchilar II sinfdan boshlab figuralarning xossalari o'rganadilar. II-IV sinflarda figuralarning xossalari aniqlashtiriladi.

Geometrik materialni o'rganishda 1-sinfdan boshlab, dastur talablariga mos ravishda o'qituvchi quyidagilarni bajarishi kerak:

- 1) o'quvchilarning figuralarning shakllari, o'lchamlari, o'zaro joylashuvlari haqidagi tasavvurlarni tizimga solish va aniqlash, tegishli atamalarni va belgilarni o'zlashtirishga yordam berish, ular bilan aloqador bo'lgan so'z orqali ifodalarni aniqlash;
- 2) o'quvchilarda tanish figuralarni boshqa figuralar bilan har xil holatda o'rgana olish qobiliyatini rivojlantirish, figuralarni qismlarga ajratish va birlashtirish orqali yangi figuralar hosil qilish masalalarini shakllantirish;
- 3) bolalarni dasturda nazarda tutilgan geometrik figuralarni chizishga, ularni cho'plardan tuzishga, qog'ozdan qirqishga o'rgatish.

Geometrik materialni o'rganish munosabati 1-sinfdan boshlab o'quvchilarda induktiv tafakkur ko'nikmalari shakllanadi: eng sodda induktiv xulosalar chiqarish malakasi tarbiyalanadi. Bu bilan bir vaqtda deduktiv tafakkur ko'nikmalari rivojlanadi va foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.
2. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil.
3. Tadjiyeva Z.G., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki.-T. "Turon-Iqbol" 2011.
4. Saidova M, Dilova N, Abdullayeva B, " Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish". Toshkent "O'qituvchi" 2021 yil.
5. Saïdaova G, Yusufzoda Sh, Yarashov M, " Matematika o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" Buxoro «Durdona» nashriyoti-2021 yil.
6. F.M.Kasimov, M.J.Saidova, G.E.Saidova "O'quv-metodik majmua"